

BOLALARDA TUG'MA NOREVMATIK KARDITLAR

Tosharavo Munisa Abdusattor qizi

Mamanazarova Umida Abdisayid qizi

Maxmudova Intizor Abdurauf qizi

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti Pediatriya fakulteti talabalari

+998919531668

+998944702027

+998885791618

tosharavomunisa@gmail.com

Tadqiqot maqsadi: bolalarda norevmatik tug'ma karditlarning etiopatogenezi , klinika va diagnostikasini tahlil qilish ;

Tadqiqot materiallari va metodlari: bolalarda norevmatik karditlar rivojlanishiga sabab bo'luvchi omillar :

-ESNO virusi

-koksaki virusi

-gripp va adenoviruslar

-toksik ta'sir (botulizm , difteriya)

-bakteriya+virus

-emlashdan keyingi dorilar allergik ta'siri

-Irsiy moyillik (homiladorlik patalogiyalari , allergozlar , konstitutsia anomalialari)

Bolalarda miokard devori tuzulishi : bolalarda miofibrilalar miqdori kam , mushak tolasi nozik bo'ladi . Mitoxondriyalari kam 3 yoshdan keyin yaxshi rivojlanadi . Mitoxondrial fermentlar faolligi past , yurak stromasi hajmi katta , yuragi kengayishga moyil bo'ladi .

Patogenezi:

-qo'zg'atuvchilarning kardiomiotsitlarga bevosita ta'siri (enteroviruslar)

-yurak tomirlarining zararlanishi

-immunokompleks reaksiyalar va mikrosirkulyatsiya buzulishi

Tasnifi (Belokon bo'yicha) :

-tug'ma (erta va kechki)

-orttirilgan

Darajalari: yengil , o'rta og'ir , og'ir

Asorati: yurak yetishmovchiligi (chap qorincha yetishmovchiligi , o'ng qorincha yetishmovchiligi , total yetishmovchilik)

Bolalarda tug'ma karditlar rivojlanish vaqtiga ko'ra erta va kechki bo'lishi mumkin . Erta tug'ma karditlar tug'ulgandan 4 – 7 oy davomida rivojlanadi , yallig'lanish reaksiyalari yoq , fibroelastoz yoki elastofibroz bilan birga kechadi . Klinikasida kardiomegalia , vazn oshmasligi , teri oqarishi , ko'p terlash , sianoz bilan namoyon bo'ladi . Diagnostikada EKG da QRS kompleks kengayishi , chap qorincha gipertrofias belgilari , ST depressiyasi va T tishcha manfiylashuvini ko'rishimiz , ko'krak qafasi rentgenografiyasida trapetsiyasimon yoki sharsimon yurakni ko'rishimiz mumkun . Kechki karditlar 7 oylikdan keyin rivojlanib , ko'proq yallig'lanish reaksiyalari va yurak ritm buzulishlari bilan kechadi . Klinikasida tez charchash , tana vazni kamayishi , bezovtalik , hushdan ketish , talvasalar kuzatilishi mumkun . Diagnostikada EKG da past amplitudali , o'tkazuvchanlik buzulishi bilan bog'liq aritmialar , Exo da miokard gipokinezi ko'rinadi .

Asoratlari :

-o'lim (ko'p kuzatiladi)

-kardioskeleroz

-Miokard gipertrofias

-Ritm buzulishlari

-klapan shikastlanishi

***Xulosa:** bolalarda tug'ma norevmatik karditlarni oldini olishda asosiy e'tiborimizni ona salomatligiga qaratishimiz kerak , ya'ni homiladorlik davrida to'g'ri parvarish , har xil infeksiyon va bakterial kasalliklarni oldini olish va o'z vaqtida davolash chora tadbirlarini yo'lga qo'yishimiz kerak .*

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1. Bolalar kardiologiyasi muallif: Rasulova N.A 2024 yil Samarqand*
- 2. Bolalarda norevmatik karditlar , revmatoid artrit sayt:uzsamrt.uz 2008 yil*
- 3. Bolalarda kardiomegalia sindromi. Norevmatik karditlar . Tashxislash , qiyosiy tashxis , davolash , rehabilitatsiya va dispanserizatsia sayt: uzsmart.uz*
- 4. mt.sammu.uz modul tizimi .*